

E'lon: Toshkentda Xalqaro multimodal transport forumi bo'lib o'tadi

Turkiy davlatlar tashkiloti kotibiyati 2025-yil 12-noyabr kuni Toshkent shahrida Xalqaro multimodal transport forumi bo'lib o'tishini mamnuniyat bilan ma'lum qiladi.

Tadbir tashkilotchilari: O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Logistika markazlari va tashuvchilar uyushmasi, Turkiy davlatlar tashkiloti.

Forum konstruktiv munozaralar, axborot almashish va multimodal transport yo'nalishlarini rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha qo'shma tashabbuslarga ko'maklashishga qaratilgan.

Ushbu yuqori darajadagi uchrashuvda asosiy e'tibor transport yo'laklarini rivojlantirish, logistikada raqamli yechimlarni integratsiyalash, tranzit salohiyatini oshirish, transport sohasida yashil texnologiyalarni ilgari surish bo'yicha har tomonlama muhokama qilinadi.

Dastur quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tematik panel sessiyalarini o'z ichiga oladi:

- transchegaraviy logistika va bojxona qoidalari;
- Raqamlashtirish va platforma texnologiyalari,
- investitsiya va infratuzilma loyihalari;
- Ekologik barqaror yondashuvlar va "yashil logistika".

Turkiy dunyoning yetakchi transport va yuk tashish kompaniyalari, biznes hamjamiyatlari va tegishli manfaatdor tomonlarini ushbu tadbirda ishtirok etishga taklif qilishdan mamnunmiz.

Biz bilan yangi imkoniyatlarni kashf qilish, qimmatli fikrlarni baham ko'rish va transport kelajagiga hissa qo'shish imkoniyatidan foydalaning.

 Sana: 2025-yil 12-noyabr

 Joy: JW Marriott Hotel Tashkent

 Manzil: Toshkent sh., Botir Zokirov ko'chasi, 7-uy, 5/7

Ro'yxatdan o'tish:

<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSckNYp1zMkDlaOIctPZQ84hrL8Xn2HgZDpN8AlovDpQjfyoWQ/viewform?usp=dialog>

Ro'yxatdan o'tish muddati: 2025-yil 25-oktabr

Forum dasturi va mazmuni haqida batafsil ma'lumot quyidagi havolada mavjud:

https://drive.google.com/drive/folders/1GQLJYYSUPIzWZ-dxp-7Q_CqbLX5FDzc-?usp=sharing